

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KONSTRUKSION MATERIALLAR FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida KonstrukSION materiallar talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

KonstrukSION materiallar

- 1.Qora va rangli metallar metallurgiyasi
- 2.Materialshunoslik asoslari
- 3.Metall va uning qotishmalaridan quymalarni olish
- 4.KonstrukSION materiallarni bosim bilan ishlash
- 5.KonstrukSION materiallarni payvandlash, kesish va kavsharlash

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Qora va rangli metallar metallurgiyasi	Materiallar xili va ularning qo'llanish sohalari Domna pechida cho'yan ishlab chiqarish Po'lat ishlab chiqarish usullari Rangli metallar va ularni qotishmalarini ishlab chiqarish bilimlarini bilishi kerak	17.5 %	7 ta
2	Materialshunoslik asoslari	Materiallarning tuzilishi, kristallanishi va allotropik shakl o'zgarishlari, rangli metall qotishmalari, qotishmalarni termik ishlash, po'lat buyumlarni kimyoviy-termik ishlash, cho'yanlar va rangli metallarni termik hamda kimyoviy-termik ishlash, korroziya, uning xillari va oldini olish tadbirlari Kompozitsion materiallar, nometall materiallar to'g'risidagi bilimlarni bilishi kerak	70 %	28 ta
3	Metall va uning qotishmalaridan quymalarni olish	Quyish tizimi va qolip tayyorlash usullarini, quymalar olishning maxsus usullari, quymalarda uchraydigan asosiy nuqsonlar to'g'risidagi bilimlarni bilishi kerak	2.5 %	1 ta
4	Konstruksion materiallarni bosim bilan ishlash	Metallarni prokatlash, metallarni kiryalash va uning qo'llanilish sohalari, metallarni presslash to'g'risidagi bilimlarni bilishi kerak	5 %	2 ta
5	Konstruksion materiallarni payvandlash, kesish va kavsharlash	Materiallarning payvandlash, rivojlanishi, tasnifi va payvandlash birikmalari, metall buyumlarni termik sinfga kiruvchi usullarda payvandlashni, metall buyumlarni termomexanik sinflarga kiruvchi usullarda payvandlashni, metall buyumlarni mexanik sinfga kiruvchi usullarda payvandlash to'g'risidagi bilimlarni bilishi kerak	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Mirboboyev. Konstruktion materiallar texnologiyasi, T “Davr nashriyoti” MChJ 2013-yil
2. Болховитинов Н.Ф. Металловедение и термическая обработка. «Машиностроение», Москва, 1965 г.
3. Долматовский Т.А. Справочник технолога по обработке резанием. Машгиз, 1962 г.
4. Дубинин М.П. и др. Технология металлов. «Высшая школа», Москва, 1964 г.
5. Далский А.М. Технология конструкционных материалов. Машст, 1990 г.
6. Иванова Г.А. Основа теории резания, инструмента, станка. Москва, 1963 г.
7. Кнорозов Б.В. и др. Технология металлов. «Металлургия», Москва, 1974 г.
8. Mirboboyev V.A. Konstruktion materiallar texnologiyasi. T.: «O‘qituvchi», 1977-y. va 1991-y.